

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD. 03/27.02.2020.Fil.91.02 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**BABAYEVA SEVARA BAXTIYOR QIZI**

**ISAJON SULTON ROMANLARIDA BADIY TAFAKKUR TADRIJI**

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Guliston – 2024**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferatining mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
philological sciences**

**Babayeva Sevvara Baxtiyor qizi**

Isajon Sulton romanlarida badiiy tafakkur tadriji.....3

**Бабаева Севара Бахтиёр кизи**

Уровень художественного мышления в романах Исаджана Султана.....23

**Babaeva Sevvara Baxtiyor qizi**

Grading of artistic thought in Isajan Sultan’s novels.....45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works ..... 50

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD. 03/27.02.2020.Fil.91.02 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**BABAYEVA SEVARA BAXTIYOR QIZI**

**ISAJON SULTON ROMANLARIDA BADIY TAFAKKUR TADRIJI**

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Guliston – 2024**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Fil2186 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Guliston davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Guliston davlat universiteti veb-sahifasining (www.gdu.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali www.ziynet.uz manziliga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Fayzullayeva Obidaxon Xolbekovna  
filologiya fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:** Yakubov Islomjon Ahmedjanovich  
filologiya fanlari doktori, professor

Hamroqulova Xurshida Quvvatovna  
filologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** Farg'ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Guliston davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.02.2020.Fil.91.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "07" 12 soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 120100, Guliston sh., 4-mavze. Tel.: (99 867) 225-40-42; faks: (99 867) 225-02-75; E-mail: glsu.info@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Guliston davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (122 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 120100, Guliston sh., 4-mavze. Tel.: (67) 225-40-42).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "21" 11 kuni tarqatildi.  
(2024-yil "21" 11 dagi 122 raqamli reestr bayonnomasi).



**M.R.Mamatqulov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**A.A.Axrоров**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), dotsent

**F.G. Sharipov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

## **KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligi ilmida ijodkorlik qobiliyati, ijodkor inson, tafakkur, badiiy tafakkur, badiiy ong, badiiy asardagi muallif badiiy tafakkurining ahamiyati va o‘rni kabi masalalar olimlarning doimiy diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Bugungi adabiyotshunoslik badiiy tafakkur, uning badiiy-estetik mohiyatini insonlarning ma‘naviy ongi va tafakkuridagi, adabiyot va san‘at rivojidagi rolini o‘rganish ushbu soha rivojida alohida ahamiyat kasb etishi kabi masalalarni chuqur tadqiq etishni taqozo qilmoqda.

Dunyo adabiyotshunosligi, shuningdek, falsafa va psixologiya sohalarida ham ijodkorlik qobiliyati, badiiy tafakkurning kelib chiqishi hamda rivojlanishi xususidagi masalalar ko‘p yillar davomida tadqiqot obyekti sifatida keng o‘rganilmoqda. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlarda nafaqat badiiy tafakkurning tabiati, ijodkor inson konsepsiyasi, balki ijodiy tafakkurning insoniyat ruhiy-ma‘naviy kamoloti va jamiyat taraqqiyotidagi roli masalalari adabiyotshunoslik va psixologiya fanlarining tutash sohalarida keng yoritilgan. Badiiy asarda muallif badiiy tafakkurining chuqur tadqiq etilishi ijodkorning badiiy mahorati va asar poetikasining nazariy jihatlarini to‘liq asoslashi mumkin.

Mamlakatimiz mustaqilligi hayotimizning ijtimoiy va madaniy sohalaridagi turli o‘zgarishlar qatori ilm-fan, xususan, adabiyotshunoslikka bo‘lgan e‘tiborni ham yanada kuchaytirdi. O‘zbek adabiyotshunosligida jahon adabiy-nazariy, badiiy-estetik tajribalari va milliy qadriyatlar asosida badiiy ijod va ijodiy tafakkur sohasiga aloqador ilmiy muammolar olimlar hamda ijodkor qalam ahli tomonidan o‘rganildi va tadqiq etib borilmoqda. Ammo badiiy adabiyotda muallif badiiy tafakkuri, uning badiiy asardagi turlanishi, ijodkor inson obrazining badiiy talqini kabi masalalar yetarli darajada o‘rganilmagan. Xususan, badiiy-estetik tafakkur olamida yangidan yangi qiyofalarga ega bo‘layotgan mustaqillik davri adabiyotidagi badiiy tafakkurning tadrijiy taraqqiyoti va uning omillari tadqiq etilishini kutayotgan muhim muammolardan biri sanaladi. Zero, “...o‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilish, ko‘p qirrali bu mavzuni bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish katta ahamiyatga ega”<sup>1</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeiini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 10-oktabrdagi O‘RQ-576-son “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni, 2020-yil 20-oktabrdagi PQ-1395-son “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг “Ўзбек мумтоз ва замонавий адабиётини халқаро миқёсда ўрганиш ва тарғиб қилишнинг долзарб масалалари” мавзусидаги халқаро конференция иштирокчиларига йўллаган табриги. // Халқ сўзи. – Тошкент, 2018 йил 8 август.

to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, qarorlari, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida amalga oshirilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Jahon adabiyotshunosligida badiiy tafakkur va ijodkor shaxsi masalasida anchagina boy tajriba to'plangan. Xususan, M.M.Baxtin, V.G.Belinskiy, Z.Freyd, A.N.Veselovskiy, K.Yung, A.Shopengauer, A.P.Kuper, Y.Abramzon, V.Rudakova, B.Zaytseva, A.Kozko, V.Tulina, M.S.Kagan, V.V.Karix, A.A.Ageyeva, V.Greshnix, L.Stepanov, S.Petrikov, T.Klimova, M.Imomov, P.Kulichkin, L.Vigotskiy, J.Kexo, Y.Parandovskiy, A.Makarenko singari dunyoning mashhur faylasuf-estetlari va adabiyotshunoslari mavzuga doir muhim ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishgan<sup>1</sup>. Ularning ilmiy izlanishlarida ijod va tafakkur uyg'unligi, roman janri va uning individual xususiyatlari, ijodkor shaxsi kabi masalalar bilan bog'liq ilmiy-nazariy qarashlar yoritilgan.

O'zbek adabiyotshunosligida ham badiiy tafakkur va ijodkor shaxsi muammolari bo'yicha muayyan ilmiy-nazariy tajribalar to'plangan. Istiqlol davrida yaratilayotgan romanlar ilmiy-adabiy jamoatchilikda ulkan qiziqish uyg'otib, turli bahs hamda munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda. I.Sultonov, M.Qo'shjonov, U.Normatov, O.Sharafiddinov, D.To'rayev, H.Umurov, B.Karimov, D.Quronov, Q.Yo'ldoshev, U.Jo'raqulov, X.Do'stmuhammedov, U.Hamdamov, I.Yoqubov, Z.Pardayeva, Sh.Davronova, Sh.Botirova, N.Tosheva, M.Omanova, G.Muhammadjonova, Sh.Xojiyeva, S.To'laganova, Sh.To'ychiyeva, Ch.Niyatov,

---

<sup>1</sup> Белинский В.Г. Разделение поэзия роды и виды. ПСС. Т.5. – М. – Л., 1954; Бахтин. М.М. Эпос и роман // Вопросы литературы. – 1970. №1. – С. 95-123; О методологии исследования романа. Литературно-критические статьи. – М.: Художественная литература, 1986; Фрейд З. Введение в психоанализ. В. 4-х.т. – М.: 2000; Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – Л., 1940; Critical and Creative Thinking: A Literature Approach Phyllis Cooper. University of Massachusetts Boston. 12-19-1987. [http://scholarworks.umb.edu/cct\\_capstone](http://scholarworks.umb.edu/cct_capstone); The Consistency of Lyric Artistic Thinking. Tatiana E. Abramzon, Svetlana V. Rudakova, Tatiana B. Zaitseva, Natalia A. Koz'ko, and Ekaterina V. Tulina Nosov Magnitogorsk State Technical University, Magnitogorsk, RUSSIA. INTERNATIONAL JOURNAL OF ENVIRONMENTAL & SCIENCE EDUCATION 2016, VOL. 11, NO. 17, 10185-10196; Каган М.С. Эстетическое и художественное восприятие в развитом социалистическом обществе. / М.С. Каган – М.: Знание, 1984; Карих Виктория Вячеславовна, Агеева Елена Александровна. Художественное мышление как феноменологическая категория. АНИ: педагогика и психология. 2017. Т. 6. № 1(18); В.Грешних "Немецкий романтизм: структура художественного мышления", Л.Степанов "Эстетическое и художественное мышление А.С.Грибоедова", С.Петриков "Закономерности развития художественного мышления", Т.Климова "Притча в ситеме художественного мышления В.Маканина", М.Имомов "Художественное мышление и поэтика прозы Садриддина Айни", П.Куличкин "Эволюция художественной жизни и стиля мышления"; Жон Кехо. Гайриинхтиёрый онг мўъжизалари. – Т.: ДАВР ПРЕСС. 2021; Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. – М.: Просвещение, 1991; Ян Парандовский. Сўз кимёси. – Т.: Янги аср авлоди, 2022; Антон Макаренко. Бадий ижод хақида. – Т., 1960.

G.Qo‘yliyeva, D.To‘rayeva, I.Saymuratova, M.Mansurova<sup>1</sup> kabi olimlar o‘z tadqiqotlarida epik asarlar talqinida badiiy tafakkur ifodasi masalasiga o‘z munosabatlarini bildirib, qisman bo‘lsa-da, bu boradagi o‘z qarashlarini ilgari surganlar.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Guliston davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №27 “O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb muammolari” mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** mustaqillik davri o‘zbek nasrining yetakchi vakillaridan bo‘lgan Isajon Sulton romanlarida muallif badiiy tafakkuri individual xususiyatlarining badiiy asar talqinida namoyon bo‘lishi masalasini tadqiq etishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

badiiy asarda ijtimoiy hayot tavsifi va ijodkor shaxsiy “men”i uyg‘unlashuvi masalasini tadqiq etish;

badiiy tafakkur masalasiga ijtimoiy fanlarda mavjud bo‘lgan ilmiy mezonlar asosida baho berish;

Isajon Sulton romanlari yuzasidan yozuvchi badiiy tafakkuri shakllarini tasniflash va ilmiy asoslash;

muallif badiiy tafakkurida Sharq va G‘arb an‘analarining badiiy sintezi masalasini yoritish hamda qiyosiy tahlil etish;

adib romanlaridagi o‘zaro bog‘liq nuqtalarni aniqlash va shu asosida muallif uslubidagi individuallikni ochib berish;

tasavvufiy qarashlar ifodasi va unda komil inson masalasining badiiy talqinini tahlil etish;

romaniy tafakkur, kompozitsiya, poetik til va muallif badiiy mahorati muammolarini tadqiq etish kabilardan iborat.

---

<sup>1</sup>Ниятов Ч. Ҳозирги ўзбек прозасида характер проблемаси. – Т.: Фан.1984; Тўраев Д. Ҳозирги ўзбек романларида бадий тафаккур ва маҳорат муаммоси (60-80 йиллар). Филол.фан. д-ри. дисс. –Т., 1994. – 234 б.; Пардаева З. Ҳозирги ўзбек романларининг тараққиёт тамойиллари: Филол. фан. д-ри. дисс. автореф. –Т., 2003; Солижонов Й. XX асрнинг 80-90 йилларида ўзбек насрида бадий нутқ поэтикаси: Филол.фан. д-ри. дисс. автореф. –Т., 2003. – 49 б.; Қуроноф Д. Чўлпон поэтикаси (насрий асарлари мисолида): Филол.фан. д-ри. дисс. – Т., 1998. – 45 б.; Дониёрова Ш. Истиқлол даври ўзбек романларида миллий руҳ ва қаҳрамон муаммоси: Филол.фан. д-ри. дисс. – Т., 2012. – 257 б.; Ёқубов И. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси. Монография. – Т.: Нурафшон бусинесс. 2021.; Давронова Ш. Истиқлол даври ўзбек романларида Шарқ ва Ғарб анъаналарининг бадий синтези. Филол. фан. д-ри. (DSc) дисс. – Бухоро, 2019; Тўлаганова С. Ижодкор шахсияти ва бадий қаҳрамон муаммоси (Абдулла Қодирий ижоди мисолида). Филол.фан. д-ри (DSc) дисс. – Т., 2019; Тошева Н. Ҳозирги ўзбек насрида фольклорга оид воситаларнинг поэтик функцияси. Фил.ф.д.(PhD) дисс. автореф. – Т.,2020; Тулабаева Р. Худойберди Тўхтабоев романларида бадий психологизм. Филол. фан. (PhD) дисс. – Т., 2019; Оманова М. Истиқлол даври ўзбек романларида Шайх валийлар образининг бадий талқинлари. Филол.фан. (PhD) д-ри. дисс. автореф. – Жиззах, 2022; Муҳаммаджонова Г. Мустақиллик даври ўзбек насрида ижодкор инсон концепцияси. Филол. фан. д-ри. (DSc) дисс. автореф. – Фарғона. 2022; Қўйлиева Г. Ўзбек насрида трилогия. Филол. фан. (PhD) д-ри. дисс. – Самарқанд., 2019; Тўраева Д. Бадий ғоя, ижодий тасаввур ва эстетик талқин масалалари. Филол. фан. (PhD) д-ри. дисс. – Т., 2019; Saymuratova I. Istiqlol davri o‘zbek romanlarida shakl va uslub (Xurshid Do‘stmuhammad va Isajon Sulton romanlari misolida). Filol.fan. (PhD) d-ri. diss. – Guliston., 2023; Mansurova M. Ҳозирги ўзбек насрида жадид адиблари образининг бадий талқини. Филол. фан. (PhD) д-ри. дисс. –Т., 2022.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Isajon Sultonning “Boqiy darbadar”, “Ozod”, “Genetik”, “Alisher Navoiy”, “Bilga Xoqon”, “Ma’suma”, “Abu Rayhon Beruniy” romanlari tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmetini** mustaqillik davri o‘zbek nasri vakili bo‘lgan Isajon Sulton romanlaridagi badiiy tafakkur, tafakkur shakllari tasnifi, muallif ijodiy tafakkurining asardan asarga ko‘chish jarayoni, ijodkor badiiy konsepsiyasi, uslub va kompozitsiya, badiiy asar tili, psixologizm kabi masalalarni tadqiq etish tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tipologik, qiyosiy-tarixiy, semantik-struktural, biografik, kontekstual va funksional tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

badiiy asar kontekstida badiiy tafakkurning pedagogika, psixologiya, mantiq, estetika kabi boshqa sohalar, shuningdek, muallif badiiy tafakkurining ijod jarayoni va ong oqimi bilan bog‘liqligi, ijtimoiy hayot tavsifi va ijodkor shaxsiy “men”ining uyg‘unlashuvi asosida badiiy tafakkurning yangi qirralari, o‘ziga xos jihatlari turli ifoda yo‘nalishlari Isajon Sulton romanlari misolida ochib berilgan;

Isajon Sulton romanlaridagi g‘oya davomiyligi, biri ikkinchisidan o‘sib chiqqan obrazlarning mavjudligi, sayyor syujetlarning zanjir sifatida bog‘lab tadqiq etish imkoniyatini berishi kabi jihatlari mazkur romanlar bir-biriga uzviy bog‘liq bo‘lgan badiiy tafakkurning tadrijini namoyon qiluvchi va o‘zaro ta’sir asosida yozilgan asarlar ekanligi isbotlangan;

mustaqillik davri o‘zbek romanlarida psixopoetik matn, falsafiy dunyoqarash, ramziylikning ustuvor jihatlari, intertekstuallik, romanlarda Sharq va G‘arb an‘analarining badiiy sintezi jarayoni, xaos olam tasviri orqali kosmik mantiq paydo qilish xususiyatlarining tahlili asosida yozuvchining san‘at asarlarini yaratish va idrok etish, inson tafakkuri oqimining asosiy va o‘ziga xos tabiati, yakuniy maqsadlari, ijtimoiy funksiyalari va amaliyotiga kiritish usullari kabi o‘ziga xos jihatlari ochib berilgan;

Isajon Sulton romanlarida badiiy tafakkurning poetik xususiyatlari, tasavvufiy qarashlar ifodasi va unda komil inson masalasining badiiy talqini, tarixiylik tamoyili hamda badiiy mahorat masalalarining berilishi asosida o‘zbek nasrida ijodkor inson va badiiy tafakkurning mumtoz adabiyotga oid bilimlar bilan sintezlashganligi isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

badiiy tafakkur tushunchasi borasidagi adabiy-nazariy qarashlar, bu masalaning boshqa sohalar bilan bog‘liqligi va tasniflanishi badiiy kontekstlar asosida tahlil etilib, o‘rganilgan;

badiiy tafakkur shakllari va ularning o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlari ilmiy-estetik jihatdan asoslangan;

mustaqillik davri o‘zbek nasri, xususan, romanlarining yetakchi tamoyillari va xususiyatlari adabiy-nazariy jihatdan o‘rganilgan;

Isajon Sulton romanlarida badiiy tafakkur talqini uslub, kompozitsiya, badiiy asar tili, biografik yondashuv va tasavvuf ilmi jihatidan tadqiq etilgan.



**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot yuzasidan chiqarilgan xulosalar ilmiy tadqiqotchi tomonidan e’lon qilingan ilmiy ishlarda o’z ifodasini topganligi hamda bu xulosalar ilmiy jamoatchilik tomonidan ijobiy tarzda baholanganligi, aniq qo’yilgan muammo qiyosiy-tipologik va kontekstual usullar yordamida yechilganligi tadqiqot natijalarining ishonchliligini belgilaydi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Isajon Sultonning “Boqiy darbadar”, “Ozod”, “Genetik”, “Alisher Navoiy”, “Bilga Xoqon”, “Ma’suma”, “Abu Rayhon Beruniy” kabi romanlari asosida muallif badiiy tafakkuriga baho berilganligi natijasida zamonaviy o’zbek nasri, xususan, roman janrining poetikasini tahlil etishda ilmiy-nazariy manba bo’lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyadagi xulosa va tavsiyalardan oliy ta’lim muassasalari uchun “Adabiyotshunoslik asoslari”, “Qiyosiy adabiyotshunoslik”, “Hozirgi adabiy jarayon” kabi darslik va qo’llanmalar yaratishda, ma’ruza va seminar mashg’ulotlari mazmunini boyitishda, magistrlik dissertatsiyalari yozishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Isajon Sultonning romanlarida badiiy tafakkurning tadriji masalasini tadqiq etish jarayonida olingan ilmiy natijalar asosida:

Isajon Sulton romanlarida badiiy tafakkurning poetik xususiyatlari, tasavvufiy qarashlar ifodasi va unda komil inson masalasining badiiy talqini, tarixiylik tamoyili hamda badiiy mahorat masalalarining berilishi asosida o’zbek nasrida ijodkor inson va badiiy tafakkurning mumtoz adabiyotga oid bilimlar bilan sintezlashganligiga doir xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan OT-F1-030-raqamli “O’zbek adabiyoti tarixi” ko’p jildlik monografiyasini yaratish mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 13-maydagi 01-10/933-son ma’lumotnomasi). Natijada, o’zbek adabiyotida muallif badiiy tafakkuri hamda roman janrining nazariy belgilari orqali badiiy-estetik tahlillar mazmunining boyishiga erishilgan;

mustaqillik davri o’zbek romanlarida psixopoetik matn, falsafiy dunyoqarash, ramziylikning ustuvor jihatlari, intertekstuallik, romanlarda Sharq va G’arb an’analari badiiy sintezi jarayoni, xaos olam tasviri orqali kosmik mantiq paydo qilish xususiyatlarining tahlili asosida yozuvchining san’at asarlarini yaratish va idrok etish, inson tafakkuri oqimining asosiy va o’ziga xos tabiati, yakuniy maqsadlari, ijtimoiy funksiyalari va amaliyotiga kiritish usullari kabi o’ziga xos jihatlari ochib berilganligiga doir ma’lumotlardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan PF-201912258-raqamli O’zbek adabiyotining ko’p tilli (o’zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish nomli amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universitetining 2022-yil 21-dekabrda 01/4-3524-son ma’lumotnomasi). Natijada, o’zbek romanchiligida chet tilidagi so’zlar va matnlarning o’rinli tarzda qo’llanilishi, yangilangan adabiy-

estetik tafakkurning in'ikos etishi, muallif poetik mahorati kabi muammolarini ochib berishga imkon bergan;

Isajon Sulton romanlaridagi g'oya davomiyligi, biri ikkinchisidan o'sib chiqqan obrazlarning mavjudligi, sayyor syujetlarning zanjir sifatida bog'lab tadqiq etish imkoniyatini berishi kabi jihatlar mazkur romanlar bir-biriga uzviy bog'liq bo'lgan badiiy tafakkurning tadrijini namoyon qiluvchi va o'zaro ta'sir asosida yozilgan asarlar ekanligiga doir masalalar yuzasidan chiqarilgan ilmiy xulosalardan Sirdaryo viloyat teleradiokompaniyasining "Mutolaa", "Biz suv ichgan daryolar" teleko'rsatuvlari ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Sirdaryo viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yil 25-oktabrdagi 294- va 295-son ma'lumotnomalari). Natijada, mazkur ko'rsatuvlar yangi ilmiy-nazariy ma'lumotlar bilan boyitilib, ularning ilmiy-ma'rifiy saviyasining yanada yuksalishiga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiyaning asosiy mazmuni yuzasidan 15 ta maqola, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 4 ta respublika hamda 3 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 148 sahifadan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Zamonaviy o'zbek nasrida ijodkor dunyoqarashi va badiiy tafakkurning tadrijyiligi**" deb nomlangan bo'lib, "**Badiiy tafakkur tushunchasining nazariy asoslariga doir**" nomli ilk faslida ijod va san'atning paydo bo'lishi, ijodkor shaxsning ruhiy-psixologik va tafakkuri bilan bog'liq jarayonlar, ong osti oqimi kabi xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan o'zaro uzviy bog'liq birliklar sifatida o'rganilgan.

Rus va jahon faylasuf-estetlari hamda adabiyotshunoslari yozuvchi iste'dodi, badiiy ijod jarayoni psixologiyasi, ijodkor individualligi va badiiy mahorati, ong osti oqimi nazariyasi, romanchilik va uning badiiy-estetik tahlili borasida salmoqli tadqiqotlarni amalga oshirishgan. O'zbek adabiyotshunosligida ham ijodkor dunyoqarashi, badiiy tafakkur hamda obrazli fikrlashdagi individual xususiyatlari

kabi muammolarni yorituvchi tadqiqotlar yuzaga kelgan. “Badiiy matn va estetik talqin”, “Mustaqillik davri o‘zbek romanlari poetikasi” (I.Yoqubov), “Badiiy tafakkur tadriji” (U.Hamdammov), “Epik tafakkur tadriji” (J.Eshonqul), “Ruhiyat alifbosi” (B.Karimov), “Adabiy jarayonda “Mom” sindromi” (D.Quronov), “Hududsiz jilva” (U.Jo‘raqulov) singari monografik izlanishlarda yozuvchining ijod jarayoni bilan bog‘liq masalalar, uning poetikasi, uslubi hamda tasvirlash mahorati tadqiq etilgan. Amalga oshirilgan izlanishlarda ijodkor inson konsepsiyasi, ijodkor “men”i muammosiga turli rakurslardan yondashilgan. Inson botinida sodir bo‘ladigan har qanday holat faqat so‘z orqaligina yuzaga chiqadi. Hattoki og‘zaki tarzda aytilmagan holatda ham insonning ichki nutqi, o‘y-xayoli, kechinmalarining o‘zi ham so‘z orqali zuhr bo‘ladi. So‘z esa, o‘z-o‘zidan, fikr orqali mantiqiy tugallikka erishadi. So‘z san‘ati hisoblangan badiiy adabiyotni fikrsiz, tafakkursiz paydo qilish yoki tushunish aslo mumkin emas. Birgina badiiy asarning dunyoga kelishi ijodkordan juda katta mehnat va mashaqqatni talab etadi. Badiiy tafakkur san‘at asarini yaratish, uni idrok etish va tushunishga qaratilgan ma‘naviy faoliyat turi bo‘lib, shu jihatlariga ko‘ra ham u badiiy ongning eng yuqori darajasi hisoblanadi. Badiiy tafakkur voqelikni to‘g‘ridan-to‘g‘ri aks ettirishga asoslanadi, uni umumlashtiradi, tizimlashtiradi va badiiy obrazlarda o‘z natijalarini ko‘rsatadi, estetik didning, inson tuyg‘ularining shakllanishi va rivojlanishiga xizmat qiladi. Badiiy tafakkurning xarakterli xususiyatlari sifatida undagi intuitivlik, assotsiativlik va metaforalar orqali fikrlashni ham keltirish mumkin. Ijodkor dunyoqarashi va badiiy tafakkur tushunchalari bir-biri bilan uzviy bog‘liq va bir-birini to‘ldiradigan tushunchalar bo‘lib, hissiy va aqliy idrok orqali dunyoni bilish, ko‘rish, ifodalash kabi jarayonlarni obrazlar vositasida amalga oshiradi. Ijodkor shaxs butun dunyoni o‘zining ratsional va irratsional tasavvurlariga bo‘ysundirib, yangi bir olamni, o‘z botinidagi individual borliqni obrazlar va majozlar vositasida akslantiradi. “Ijodkor ongida voqelikni jamlash, saralash, tartibga keltirish, tizimga solish – badiiy tafakkurning bosqichlari hisoblanadi. Bu bosqichlar, o‘z navbatida, ijod paytida amalga oshirilib, yig‘ilgan materiallar badiiy mantiq asosida shakllantiriladi”<sup>1</sup>. Yuqoridagi qiyoslardan ijod jarayoni bosqichlarining tabiiy tarzda ketma-ket sodir bo‘lishi tushuniladi. Shu o‘rinda, badiiy tafakkurni ijtimoiy hayot, jamiyat bilan ham bog‘liqlikda o‘rganish maqsadga muvofiq sanaladi. Negaki, har qanday asar o‘zi yaratilayotgan davr, muhit, zamon ruhi bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Ijodkor o‘z davrining muammolarini, umuminsoniy masalalarni boshqalardan ko‘ra oldinroq va chuqurroq ko‘ra biladi, his etadi va idrok qiladi. Uning badiiy tafakkurida sodir bo‘ladigan evrilishlar ham, albatta, zohirdagi olamning botiniy ko‘rinishlari orqali dunyoga keladi. She‘riyatda badiiy tafakkurning tadriji borasida ilmiy tadqiqot olib borgan olim hamda ijodkor Ulug‘bek Hamdam shunday yozadi: “Davr shaxsni tebratdi, shaxs she‘rni. O‘z navbatida, she‘r odamlarga ta‘sir qildi, odamlar esa davrga. Shaxs davrdan olib, davrga berdi. Ko‘rinadiki, shaxs-shoir, avvalo, davr va she‘r o‘rtasida vositachidir. Davrning ruhi she‘rda qanday va qay darajada aks

---

<sup>1</sup> Тўлаганова С. Ижодкор шахсияти ва бадий қаҳрамон муаммоси (Абдулла Қодирий ижоди мисолида). Филол.фан. д-ри (DSc) дисс. – Т., 2019. – Б. 28-29.

etishi o'rtada turgan shaxsga, uning salohiyatiga bog'liq: davrning ruhi, kayfiyati nur bo'lsa, shaxs ana shu nurni bir nuqtaga to'plab, o'zidan o'tkazguvchi shaffof jism – fokusdir”<sup>1</sup>. Adabiyotshunos olim bu o'rinda ijtimoiy hayot, jamiyat, zamonning ijodkor badiiy tafakkuriga ta'siri va bu ta'sirning, o'z navbatida, insoniyatga, jamiyatga ta'siri haqidagi falsafiy qarashlarini aytib o'tgan. Bu ta'sirning kuchi esa bevosita ijodkor salohiyati, badiiy tafakkurining qanchalik keng va boy ekanligiga bog'liq.

Badiiy tafakkur ijtimoiy hayot, makon va zamon bilan bog'liq hodisa o'laroq doimo yangilanishda, o'zgarishda bo'ladi. Mustaqillik yillarida, ayniqsa, nasrdagi badiiy tafakkur va estetik talqin masalasi anchagina yangilandi, olimlar tili bilan aytganda “ingichkalashdi”. Bunda, asosan, urg'u asar syujeti, voqealar rivojidan ko'ra, ijodkorning fikr va kechinmalari birinchi planga olib chiqildi. Shunga ko'ra, asarlardagi individuallik yanada qabariq holatda ko'rina boshladi. Ularning o'ziga xosligi esa quyidagi faktorlarga tayanadi: “Ular tabiiy siyrati, ma'naviy-madaniy darajasi, qiziqishi, badiiy mahorati, shuningdek, bilim saviyasi, maslag-u dunyoqarashini shakllantirgan ijtimoiy-genetik faktorlarga bog'liq tarzda yuzaga qalqib chiqqan motivatsiyasi hamda estetik idealga yondashuv pozitsiyasi (appersepsiya hodisasi) muayyan farqlanishni keltirib chiqaradi. Bu jarayonda ijodkorning emotsional holati (his-tuyg'u – kayfiyati, ruhlanishi, shijoati, shiddat-sur'ati nechog'lik davomiyligi) ham muhim rol o'ynaydi”. Bundan anglashiladiki, ijodiy idrok mazmuni doimo individual ko'rinishda bo'ladi. Hattoki bir xil mavzu va bir xil g'oyani ifoda etishni niyat qilgan ikki ijodkorning yaratilajak asarlari hech qachon bir-biriga o'xshash talqinga ega bo'lmaydi. Yoki, aksincha, bir muallif tomonidan yozilgan ikki asar bir-biriga o'xshash bo'lib qolishi ham mumkin. Masalan, Nazar Eshonqulning “Taqiq mevasi” (ikki novelladan iborat roman) asari yozuvchining “Qora kitob” qissasi bilan mazmun va shakl jihatidan juda o'xshash. Har ikkala asarda ham bosh qahramon Iblis bo'lib, hikoyachi qahramon va atrofdagi boshqa obrazlar uni ideal qiyofada ko'radi. Olam va inson botini haqida o'ziga xos uslubda yaratilgan ushbu asarlar insonning ruhiy yolg'izligi, jamiyatdan begonligi, eng yaqin insonlarining uni tushunmasligi, hislarini anglamasligi, ichki va tashqi olam orasidagi ruhiy bo'shliq mavjud ekanligini tasvirlaydi.

Istiqlol davrida yaratilayotgan asarlar uslub va mavzu jihatidan xilma-xildir. Shu bilan birgalikda, har biri o'z kitobxonlariga ega. O'tgan asrlarda barcha kitobxonlar o'z davrining ijodkorlarini birdek sevib o'qigan bo'lsalar, bugungi kunga kelib, didlar xilma-xil, fikrlar va qarashlar o'rtasida tafovutlar yuzaga kelmoqda. “Bu holat – millat miqyosida yuz berayotgan juda o'ziga xos bir intellektual-estetik tamoyilning ko'rinishi. U, avvalo, millat ahlining didi xilma-xillashib borayotganini ko'rsatadi. Endi hammaga birday ma'qul keladigan fikr ham, barcha yoppasiga birday suyib o'qiydigan badiiy asar ham bo'lishi gumon...” (Q.Yo'ldoshev). Bu hodisani olim tafakkurning esselashuvi sifatida baholaydi. Ya'ni esse janri uchun ma'lum bir qonun-qoida emas, balki fikr muhim bo'lganligi

---

<sup>1</sup> Хамдамов У. XX аср ўзбек шеърини бадий тафаккур тадрижининг ижтимоий-психологик хусусиятлари. Филол.фан. д-ри (DSc) дисс. – Т., 2017. – Б. 29.

singari tafakkur esselashuvi jarayonida har bir inson (ijodkor) o'z fikrini o'z mantig'i bilan asoslashini yetarli deb hisoblaydi. Bu esa jamiyatda yagona hukmron mafkura bo'lishi mumkin emasligini ko'rsatadi. Demak, bugungi zamonaviy o'zbek adabiyotida yaratilayotgan turli talqindagi va janrdagi asarlarni yuqoridagi mezon asosida tahlil etish mumkin.

Ushbu bobning ikkinchi fasli **“Isajon Sulton romanlarida badiiy tafakkur ko‘rinishlari va ularning tadrijiyligi”** deb nomlangan bo‘lib, unda yozuvchi romanlaridagi badiiy tafakkurning o‘ziga xos jihatlari va obrazli fikrlashning tasnifi masalasi o‘rganilib, muayyan nazariy xulosalar chiqarilgan. I.Sultonning “Boqiy darbadar”, “Ozod”, “Genetik”, “Alisher Navoiy” hamda “Bilga xoqon” romanlari mazmun va shakl jihatidan o‘zaro qiyosiy tarzda tahlil etilgan. Birgina roman yozish asnosida muallif badiiy, obrazli fikrlashdan tashqari, falsafiy, mantiqiy, psixologik, estetik, diniy, mistik, majoziy va yana ko‘plab ifoda yo‘nalishlarida ijod qilishi, tafakkur qilishi lozim. Har bir davrning badiiy-estetik talab-ehtiyojlari romanga o‘zgarishlar kiritadi”<sup>1</sup>. Demak, har bir adib o‘zining individual badiiy tafakkuri, uslubi va badiiy asarga yondashuvi tomonidan yaratilajak janr namunasini yangi pog‘onalarga olib chiqishi mumkin. Isajon Sulton romanlarida falsafiy, psixologik, mistik, majoziy, diniy, mantiqiy, milliy, tarixiy kabi tafakkur shakllarini uchratish mumkin.

Dissertatsiyada Isajon Sulton romanlariga xos bo‘lgan yana bir muhim xususiyat ham borki, buni ta’kidlamasdan iloj yo‘q. Adib romanlarining har birida keyingi yaratiladigan romani bilan bog‘liq bo‘lgan jihatlarni, ya’ni badiiy tafakkurning tadrijini g‘oya davomiyligi, sayyor syujetlar yoki obrazlar ko‘chishi kabilarda ko‘rish mumkin, bu esa o‘z navbatida, muallif romanlarini bir-biriga zanjir sifatida bog‘lab tadqiq etish imkoniyatini beradi. Ya’ni Isajon Sulton romanlari bir-biri bilan bog‘liq, biri ikkinchisidan “o‘sib chiqqan”, paydo bo‘lgan asarlardir. Bu badiiy tafakkurning tadrijiy taraqqiyoti bilan bog‘liq bo‘lgan jarayondir. Masalan, “Boqiy darbadar” romanida yaratilgan genetik obrazi va shu obraz orqali muallif tomonidan yoritilgan insoniyatning ildiziga va mohiyatiga ishora qiluvchi muammolar go‘yoki “Genetik” romanida yana bir karra qayta jonlangandek bo‘ladi. Ikkala asardagi genetik obrazlari o‘rtasida ma’lum bir farqlar, ijodkorning estetik ideali jihatidan tafovutlar mavjud bo‘lsa-da, lekin ularni umumlashtiruvchi jihatlari ham yo‘q emas. “Ozod” romanida berilgan Alisher Navoiyning “Munojot”i, asar syujetining “Lison ut-tayr” asarini yodga solishi, mazmunning mumtoz so‘z sehri haqida ekanligi muallif badiiy tafakkurida bir qancha muddat o‘tgandan so‘ng so‘z mulkining sultoni Hazrat Alisher Navoiy haqida roman yozishiga turtki bo‘lgan deyish mumkin. Muallif “Lison ut-tayr” dostonidagi majoziy qushlar, ularning yo‘lboshchisi va rahnamosi qatiga singdirilgan majoziy va falsafiy mazmun-mohiyatga ishora qiladi. Ya’ni, dostonida keltirilgan, o‘z manzillari tomon otlangan o‘ttizta qush aslida turli-tuman xarakter va tafakkurga ega bo‘lgan insonlarning ramzlari, ularning orasidagi ilmiy va badiiy tafakkurga ega bo‘lgan insonlar boshqalaridan yuqoriroq pog‘onada turadi, shuning uchun ham ular qolganlarga nisbatan botiq oynaga qiyoslanilgan. Ayni

---

<sup>1</sup> Dilmurod Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: Navoiy universiteti. 2018. – B. 380.

shu o'rinda, "Qur'oni karim"da keltirilgan "Bilgan va bilmagan teng bo'lurmi" oyatini ham yodga olish mumkin. Bilimli insonlar hamisha atrofida qilarni o'z ortidan ergashtira oladi, faqat ulargina haqiqiy manzil qayerda ekanligini bilishadi. Humo qushi asarlarda ma'rifatga erishgan donishmand timsol sifatida ko'zga tashlanadi. "Mantiq ut-tayr" va "Lison ut-tayr" asarlari kabi "Vahdati vujud" (vujud yagonaligi) va "Tajalliy" (asl moyaning olamdagi zuhuroti) kabi g'oyalarni ham "Ozod" romani zamirida ilg'ash mumkin. Ozodning tog' lolasini olish uchun yo'lga chiqishi aslida bir timsol bo'lib, bundan anglashiladigan maqsad esa uning ma'naviy va ruhiy kamolotga erishuvidir. Asarda tasavvufiy ruh turli ishoralar orqali tasvirlangan.

"Ozod" romani yozilganidan o'n yilga yaqin vaqt o'tib, muallifning tasavvufiy ruhda "Alisher Navoiy" romani dunyoga keldi. Ushbu romanning yozilish ildizlarini bevosita "Ozod" romanidan ko'rinadi. Isajon Sulton ijodida har bir qahramon yoki tasvir, hattoki kichik bir detal ham muallif badiiy tafakkurining yuksak mahsuli sifatida yangidan yangi asarlar dunyoga kelishi uchun turtki vazifasini o'tay oladi. Shuningdek, Isajon Sulton romanlarida milliy ruhni asar mazmuniga singdirish, millat qahramonlari va buyuk siymolarni tasvirlash, jahon adabiy tafakkurida ro'y berayotgan shakllarni asarlarga olib kirish tamoyillari ustun. Adib o'z romanlarida milliy va mumtoz falsafani bosh konsepsiya sifatida aks ettiradi. Shu bilan birga, mazkur romanlarda jahon adabiyotining yetakchi vakillaridan Gabriel Garsia Marques, Xorxe Luis Borxes, Chingiz Aytmatov kabi yozuvchilar ijodi bilan o'zaro ta'sir ham seziladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **"Isajon Sulton romanlarida badiiy tafakkur va ifodaviylik"** deb nomlangan. Bobning **"Boqiy darbadar" romanida Sharq va G'arb an'analarning badiiy sintezi** nomli birinchi faslida I.Sultonning "Boqiy darbadar" romani misolida mustaqillik yillarida yangicha poetik tafakkur, uslubiy izlanishlar, jahon romannavisligining tajribalarini o'zlashtirish va bu bilimlarni sharqona tafakkur bilan uyg'unlashtirish masalalari tadqiq etilgan. Romanda yozuvchini o'ziga toldirgan inson va umr, qalb va iymon, e'tiqod va mas'uliyat kabi hamma makon va zamonda ham birdek dolzarb hisoblangan muqaddas tushunchalar o'ziga xos uslubda turli afsona hamda rivoyatlar vositasida, shuningdek, insoniyatning ayanchli kashfiyotlari aks etgan zamonaviy sohalaridan biri hisoblangan genetik tadqiqotlar tasviri orqali o'z ifodasini topgan. "Boqiy darbadar" romani mazmun-mohiyati, uslubi, tili, kompozitsion qurilishi, shuningdek, asardagi mayda detallar qo'llanilishigacha ijodkor konsepsiyasini o'zida to'laqonli aks ettirgan. Shu o'rinda dispersion tahlil metodi<sup>1</sup>dan foydalangan holda, qahramon ma'naviy-ruhiy olamida kechuvchi murakkab jarayonlar variatsiyalanishi bilan bog'liq vaziyatlar tahlil etilishi maqsadga muvofiq sanaladi. Jahon adabiyotida keng tarqalgan Agasfer (Boqiy juhud) obrazining yangi talqini "Boqiy darbadar" romanida Etikdo'z obrazi orqali ifodalangan bo'lib, u orqali insoniyatni gunoh amallardan yiroq bo'lish, ruhiy poklanish va iymon-e'tiqod mustahkamligiga da'vat anglashiladi. Muallif badiiy

---

<sup>1</sup> Ёкубов И. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси. Монография. – Т.: Nurafshon business, 2021. – Б. 323.

konsepsiyasida “barhayotlik ham musibat bo‘lishi mumkinligi” haqidagi qarashlar mujasam. Romandagi tasvir uslubi, qahramonlar xarakteri va majoziy hikoyatlar aynan mana shu fikrning ifodasi uchun to‘laqonli xizmat qilgan. Inson tafakkuri bilan dunyoga kelgan ushbu jonzot yaratilganligiga hali hech qancha vaqt bo‘lmasdan turib, o‘z umrining mohiyati-yu, yaratilishidan ma’ni izlaydi. Ba’zilar esa yillab besamar, bemaqsad umr kechiradilar, fikran va ruhan darbadar, biroq o‘z hayotidan mamnun va xotirjam bo‘lgan bunday insonlar bu to‘g‘risida o‘ylab ham ko‘rmaydilar, yana ham aniqrog‘i, buni o‘ylashga, tushunishga ular ojizdilar. Injildagi rivoyatlarga ko‘ra, uning Muborak zot bo‘lmish Iso alayhissallomga qo‘l ko‘tarishi va buning evaziga boqiy umr kechirishga mahkumligi haqidagi sayyor syujet dunyo adabiyoti va san’atida keng tarqalgan. “Aytishlaricha, Iso xochini ko‘tarib, uning og‘irligi ostida egilib, etikdo‘z Axasferaning eshigi oldida dam olmoqchi edi, lekin u qo‘pollik bilan uni haydab yubordi. Iso: “Men kelganimdek, u ham qolishini istayman”, dedi. (Yoki: “Men kelgunimcha siz yer yuzida aylanib yurasiz”). Shunday qilib, Axasvera Masihning ikkinchi kelishigacha yer yuzida kezib yurishga mahkum etildi. Uning uchun o‘lim yo‘q, lekin orom ham yo‘q. Abadiy o‘lmaslik va abadiy sargardonlik bilan bo‘lgan bu jazo o‘z vatanidan uzoqda dunyo bo‘ylab sarson bo‘lishga mahkum yahudiy xalqining taqdirini anglatadi”<sup>1</sup>.

Shu o‘rinda argentinalik mashhur yozuvchi Xorxe Luis Borxesning “O‘lmaydigan odam” hikoyasi haqida alohida to‘xtalib o‘tishni joiz deb topdik. Hikoya yanglish tarzda o‘lmaslikka erishgan, keyin esa uzoq umrdan charchab, uni yo‘qotishga harakat qilgan va boshidan kechirgan voqeani yozgan qahramon haqida bo‘lib, tanqidchi Ronald Krist tomonidan “Borxes san’atining cho‘qqisi” sifatida baholangan.<sup>2</sup> Hikoya Gomerning “Iliada” asari va qahramonlari bilan bog‘liq tarzda tasvirlanadi. Asar syujet jihatidan “Boqiy darbadar” romanidan farqli bo‘lsa-da, asarlardagi mohiyat va mazmun ulardagi umumiylikni ta’minlaydi. “Boqiy darbadar” romanida tasvirlangan boqiy umr azobi va undan xalos bo‘lish ilinji, vaqt va o‘limning qadr-qiymati ikkala asarda ham o‘xshash tarzda ochib berilgan deyish mumkin. Romandagi “Mening shahri haybarim” so‘nggi bobidan parcha” deb nomlangan qismida tasvirlangan shahar va uning aholisi yuqoridagi hikoyada ifoda etilgan o‘lmaslar shahri manzarasini esga soladi: “Shahar tugaganida esa, katta yalanglikda bir to‘da odamlar ko‘rindi! Bular qarovsiz alfozda, jim o‘tirar edilar. Ba’zilar yerga allaqanday shakllar chizadilar, shakllarning ma’nosi yo‘q edi...”<sup>3</sup> Borxes hikoyasida ham Rufusga ergashib yuradigan Argus (Ulissning iti) laqabini olgan o‘lmas odam ham shunday tasvirlanadi: “U yotdi va qum ustiga ahmoqona tarzda chizdi, keyin harflarga o‘xshash belgilar zanjirini o‘chirib tashladi va ular birlashishi ham mumkin. Avvaliga, bu ularning vahshiy yozuvlari, deb qaror qildim, keyin angladim: hali tilga yetib ulgurmagan odamlarning yozma tili bor deb o‘ylash bema’nilik...”<sup>4</sup>

<sup>1</sup> Agasfer yoki boqiylik bilan jazolash. Abadiy tasvirlar. <https://moscsp.ru/uz/vechnye-obrazy-kontrolnaya-rabota-vechnye-obrazy-v-mirovoi-literature.html>

<sup>2</sup> Хорхе Луис Борхес. Бессмертный. Письмена Бога. – М.: Республика. 1992 г. – С. 259.

<sup>3</sup> Исажон Султон. Боқий дарбадар. – Т.: Ўзбекистон. 2011. – Б. 63.

<sup>4</sup> Хорхе Луис Борхес. Бессмертный. Письмена Бога. – М.: Республика. 1992 г. – С. 264.

Ikkala tasvirda ham boqiylikka mahkum kimsalarning gap-so‘zlari va tutumlaridan tashqari yozgan yozuvlari va shakllari ham o‘zlari va umrlari kabi ma’nisiz ekanligi ta’kidlanadi. Shuningdek, romandagi etikdo‘z ham, hikoyadagi Rufus ham o‘zlarini donishmand va o‘zgarlar anglamagan haqiqatlarga yetishgan avliyo darajasida ko‘rsatishga ham urinadi.

Kolumbiyalik mashhur yozuvchi Gabriyel Garsia Markesning “Yolg‘izlikning yuz yili” romanida ham O‘lmas juhud haqidagi afsonalar o‘ziga xos tarzda ifoda etilgan: “O‘lmas juhud take bilan xudosiz bir ayolning zuryodi ekan, uning nafasi havoni o‘tdek qizdirib yuboradi, ul do‘zaxiyni ko‘rishning o‘ziyoq ayollarni valadi zinolarni tug‘ish jazosiga mustahiq etadi...”<sup>1</sup> “Bibliya”da keltirilgan, tavqi-la‘natga uchragan yahudiy siymosining yuz yil davomida bir naslning jaholat, qabohat va nafs botqog‘ida ayanchli qismat bilan yashab, yo‘q bo‘lib ketishi tasvirlangan romanga kiritilishi zamirida ham, albatta, ramziy ma’noni ilg‘ash mumkin. Xose Arkadio Buendiadan boshlangan avlod to o‘zining yettinchi avlodi bo‘lgan, Aurileano va Amaranta Ursulaning zuryodi, bir umr Ursulani xavfsirashiga va qo‘rquviga sabab bo‘lgan cho‘chqa dumli farzandning dunyoga kelishi va uning chumolilar to‘dasi tomonidan yo‘q qilinishi xuddi “Boqiy darbadar” romanidagi etikdo‘z singari oldindan ularning qismatiga yozilgan edi. Shuningdek, “Boqiy darbadar” romanida tasvirlangan Atlantika okeanidan to Gobi sahrosigacha yetib borgan, mudhish gunohlar hosilalari jamlangan Inson takomili markazini va unga taalluqli barcha jism va shaxslarni ham yo‘q qilish uchun paydo bo‘lgan bo‘ron tasviri bilan “Yolg‘izlikning yuz yili” asarining nihoyasida doira kabi aylanib takrorlanuvchi gunohlarni sodir etuvchi va shunday qismat bilan bir asr yashagan Buendialar avlodi va Makondo shahrini yo‘q qilib yuboruvchi bo‘ron tasviri o‘rtasida ham umumiy jihatlarni ilg‘ash mumkin. Romanda postmodern uslubdagi asarga xos bo‘lgan turli obraz va motivlar tafakkurdagina o‘zaro tutashib, qahramon hayoti, fikr-o‘ylariga bog‘lanishi, ongda kechayotgan voqealar tafakkurda yaxlit ko‘rinish sifatida shakllanishi, romandagi unsurlarning miqdoriy uyg‘unlikda bo‘lmasligi, ya’ni intertekstuallik kuzatilishi, undagi dekonstruktivlik kabilar ham undagi mana shu yo‘nalishga daxldorlikni asoslaydi. Asarda postmodernizmga xos shakllar sharqona tafakkur bilan birikadi va natijada mohiyatan G‘arb tafakkuriga xos bo‘lgan ma’nisizlikni inkor etadi.

Ikkinchi bobning navbatdagi fasli **“Ozod” romanida uslub va kompozitsiya**” deb nomlanadi. Mazkur faslda Isajon Sultonning “Ozod” romani orqali ifodalangan g‘oyaviy mazmun yozuvchining badiiy mahorati, estetik dunyosi va individual uslubini belgilab berganligi tavsiflangan. “Ozod” romani ramziylik va milliylik xususiyatlari asosida shakllantirilgan yangicha shakl va mazmunga ega asar. Adib romanlarida uslubdagi individuallik uning ramz-obrazlarni yetakchi qahramonlar sifatida talqin etganligi va g‘oyaviy niyat amalga oshirilishi jarayonida mahorat bilan qo‘llyay bilganida namoyon bo‘ladi. Roman so‘zning qudrati, mohiyati, sehri va jilvalariga bag‘ishlangan bo‘lib, uning inson

---

<sup>1</sup> Габриэль Гарсиа Маркес. Ёлғизликнинг юз йили. – Т.: Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти. 2010. – Б. 321.



hayotidagi o'zni, hayotning aksi so'zda ekanligi va aytilgan so'zning dunyoni o'zgartira olish kuchiga ega ekanligi haqida hikoya qilinadi. Ijodkor badiiy asar yaratishdan oldin, albatta, uning kompozitsiyasi haqida ham fikr yuritadi. Fabula, ya'ni voqealarning tabiiy ketma-ketligiga asar konsepsiyasidan kelib chiqqan holda o'zgartirish kiritadi va yangi badiiy struktura yaratadi. Hayot materiali (dispozitsiya)ni badiiy asar (kompozitsiya)ga aylantiradi. Bu jarayonni amalga oshirish uchun turli kompozitsion unsurlar (komponentlar)ning o'zni haqida ham to'xtalib o'tish joiz. "Epik asarlarda rivoya, tavsif, dialogning qorishiq holda kelishi taqozo qilinadi, zero, ularning bari birlikda o'quvchi tasavvurida badiiy voqelikni plastik jonlantirishga xizmat qiladi". Rivoya asarda tasvirga olingan voqea va hodisalarni hikoya qilish, asardagi makon va zamon uyg'unligini, yaxlitlikni ta'minlab turuvchi muallif nutqidir. Tavsif ham muallif tomonidan berilsa-da, rivoyaning obykti harakatlanish xususiyatiga ega, tavsif esa bundan mustasno bo'lib, u turg'un va barqarordir. Peyzaj, interyer, portret kabilar tavsif ko'rinishlaridir. Dialoglar esa o'z-o'zidan obrazlar nutqi orqali ifoda etiladi.

Kompozitsiya va kompozitsion birliklar haqida adabiyotshunos olimlar tomonidan turlicha qarashlar mavjud. Dastlab kompozitsiya an'anasi antik davrlar ritorikasida qo'llanilgan bo'lib, inventio (nutqda taqdim etiluvchi predmetlarni yaratish), dispositio (ularni muayyan tartibda joylashtirish), elokutio (nutqqa zeb bergan holda yorqin ifodalash) terminlari badiiy voqelik, kompozitsiya va nutqiy qurilish atamalariga mohiyatan mos keladi. Tavsif ham badiiy asarning muhim komponentlaridan biri sanaladi. Romanlardagi peyzaj va interyer tasvirlari ham asardagi obrazlilikni ta'minlab, bir qancha detallardan tarkib topgan bo'lishi mumkin.

Isajon Sultonning "Ozod" romanida ham qahramonlar ruhiyati o'ziga xos tarzda tasvirlangan. Ota, o'g'il, uzumzorlar egasi, Shamol, Ozod, Dilorom, Murtad va boshqa bir qator personajlarning har biri o'z nutqlari orqali o'y-fikr, his-tuyg'ularini ifoda etadilar. Yozuvchining mahorati shunda ko'rinadiki, romandagi har bir qahramonning ichki dunyosi takrorlanmas, bir-biridan farqli tarzda hayot mantig'iga ega. "O'g'il" nomli qism aynan shu qahramonning ichki dunyosi tavsifiga bag'ishlangan bo'lib, o'z tilidan hikoya qilinadi. Butun umr ekinzorda mehnat qilib, ro'zg'or tebratgan otasi, qaysidir to'y palovida serobroq go'sht bo'lsa, keyinchalik anchagacha maqtab-tamshanib yuradigan qishloqdoshlari hayotiga razm solar ekan, o'g'il o'yga botadi. O'zining ham qismati xuddi shunday, nari borsa, shunga o'xshash ekanligini his qiladi. Uning tafakkur olamini turli jumboqlar, mavhum savollar band eta boshlaydi. Qahramon o'z xayollari girdobiga shu darajada sho'ng'iydiki, hatto barcha uchun oddiy holdek bo'lib ko'ringan holatlar uning qalbini larzaga keltiradi, shuurida ulkan bir bo'shliqni paydo qiladi, umrning mohiyati haqida o'yga toldiradi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Tarixiy romanlarda hayot haqiqati va badiiy badiiy to'qimaning uyg'unligi**" deb nomlanadi. Mazkur bobning "**Alisher Navoiy**" romanida tasavvufiy talqin va komil inson tavsifi" nomli birinchi faslida Alisher Navoiy obrazining yaratilish asoslari va mazkur obrazning romanda yoritilgan tasavvufiy talqini, komillik shartlari haqida fikr yuritiladi.

